

Tonalliklarni aniqlash. Transpozitsiya

Tonalliklarni aniqlash.

Transpozitsiya

- Tonalliklarni aniqlash usullari
- transpozitsiya
- kuyning tuzilishi, boshlanishi va tugash bosqichi,
- oxirgi akkord xususiyatlari
- kalit oldi belgilari,

Tonalliklarni aniqlash.

Kalit oldi va tasodifiy al'teratsiya belgilari, kuyning tuzilishi, uning boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Kuyning so'nggi
tovushidan
tonallikni
hamisha ham
aniqlash mumkin
bo'lavermaydi.

Chunki, ba'zi
asarlarda kuy
tonikadan
boshqa
bosqichlarda
tugashi,


bundan tashqari,
kuy birinchi
bosqich tovushi
bilan
boshlanmasligi
ham mumkin.

Agar kuy jo'r bo'luvchi ovozlarga ega bo'lsa, uning ladi va tonalligini aniqlash oson bo'ladi.

Bunda jo'r bo'luvchi akkordlar yordam beradi.

Ayniqsa, oxirgi akkord tonika tovushlaridan tuzilgan bo'ladi.

Musiqqa asarining tonalligini aniqlashda asosan uchta usuldan foydalanish maqsadga muvofiq:



Musiqa asarining biror tonallikdan boshqa tonallikka ko'chirilishi **transpozitsiya** deyiladi.



Transpozitsiya ayniqsa, vokal ijrochiligida keng qo'llaniladi.



masalan, qashqar rubobi uchun yozilgan p'esani g'ijjaka moslab qaytadan yozishda ham qo'llaniladi.



Bundan tashqari, transpozitsiya biror musiqa asarining asl ko'rinishidan boshqa bir asbobga,

Transpozitsiya uch usul orqali, ya'ni:

*mazkur
intervalda
o'zgarish
yasash;*


*kalit
belgilarini
o'zgartirish
va;*

*kalitning
o'zini
o'zgartirish
yo'li bilan
amalga
oshiriladi.*

Biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo'lganda, oldin transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi.

Masalan, re
majordan kichik
tertsiya yuqoriga
transpozitsiya
qilsak, yangi
tonallik fa major
bo'ladi.

Barcha notalar
original
tonallikda qaysi
pog'ona va
akkordlarga mos
kelishi oldindan
aniqlanib, fa
major
tonalligiga
ko'chiriladi.



Komp'yuter tizimlarida,
masalan, nota matnlari
tahririga mo'ljallangan *Sibelius*
komp'yuter dasturining 1, 2, 3,
4, 5, 6 - versiyalarida bu
ma'lum murvatni bosish orqali
engil amalga oshiriladi.

Ikkinchi usul xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab transpozitsiya qilishdan iborat.



tasodifiy belgilar esa yangi kalit belgisining ko'tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o'zgarib turadi.



Bu holda kalit yonidagi belgilar o'zgaradi, notalar o'z holicha qoladi,

Masalan, Iya bemol majordan Iya majorga transpozitsiya qilsak:

a) kalit
yonidagi 4 ta
bemolni 3 ta
diyev belgisi
bilan
almashtiramiz;





I

IV

V

III



- b) agar tasodifiy belgilar uchrasa, bekarlarni diyezlar bilan, bemollarni esa bekarlar bilan almashtiramiz.
- v) uchinchi usulda nota yo'liga yangi kalit tanlanib, original tonallik tonikasi qaerda yozilgan bo'lsa, yangi tonallik tonikasi ham o'sha erda yozilaveradi.



Tayanch tushunchalar

- Tonalliklarni aniqlash usullari, transpozitsiya, kuyning tuzilishi, boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi va uchtovushligini belgilovchi asosiy hamda tayanch tovushlar, oxirgi akkord xususiyatlari, kalit oldi belgilari, boshlanish va tugash tovushlari, asarni ijro etib yoki ijroni tinglab tonallikni aniqlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- Tonalliklarni qaysi usullar orqali aniqlash mumkin?
- Transpozitsiya atamasining lug'aviy va amaliy ma'nosini tushuntiring.
- Transpozitsiya necha usul bilan amalga oshiriladi?
- Transpozitsiya qanday maqsadda qo'llaniladi?